

---

---

## AUTIZM SPEKTORLI BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN KORREKSION ISHLAR

Kurbanova Zaynab Jurakulovna <sup>1</sup>

<sup>1</sup> ATMU pedagogika kafedrasi katta o`qituvchisi

### MAQOLA MALUMOTI

### ANNOTATSIYA:

---

#### MAQOLA TARIXI:

Received:04.02.2025

Revised: 05.02.2025

Accepted:06.02.2025

---

#### KALIT SO'ZLAR:

Autizm, Spektor,  
diqqat, xotira, vizual,  
obekt, idrok,  
diferensasiya, taktil  
idrok, tafakkur, intellekt,  
emotsional.

Ushbu maqola "Maxsus pedagogika" sohasiga oid bilimlarni qamrab oladi. Maqolada O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risidagi Qonun talablari asosida maxsus pedagogika fanining nazariy metodologik muammolari, taraqqiyot bosqichlari, autizm spektorli bolalar bilan 2-ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida olib borilgan korreksion ishlar haqida ma'lumotlar berilgan. Autizmga chalingan bolalar haqida ota-onalardan olingan ma'lumotlar, ularning psixologik-pedagogik tekshiruv vaqtidagi dastlabki holatlari va ularga qo'yilgan tashxislar haqida ma'lumotlar berilgan. Nevropotolog muolajasi psixolog, logopedik mashg'ulotlardan keyin bolalarda bo'lgan o'zgarishlar keng yoritilgan. Bunday bolalar bilan mutaxassislar kompleks mashg'ulotlar olib borishi, o'qitish va tarbiyalash jarayonlari, ularning o'ziga xos jihatlari, tuzilishi, rivojlanish masalalarini yoritishga harakat qilingan. Bolalardagi o'zgarish, diqqatni bir oz bo'lsada jamlash o'z-o'zlariga xizmat qilish, sekin -asta o'quv-tarbiya ko'nikmalari shakllana borishi tahlil qilingan.

**KIRISH.** Autizm spektorining buzilishi ijtimoiy o'zaro ta'sir va muloqotning buzilishi, takrorlanuvchi va stereotipli xatti-harakatlar, notekis inelektual rivojlanish,

ko`pincha aqliy zaiflik bilan tavsiflangan bolalikdagi ruhiy kasallik simptomlari paydo bo`ladi. Kasallikning deyarli barcha holatlarida kasallik bolalik davrida aniqlanadi. Vaqt o`tishi bilan kasallikning namoyon bo`lishi va alomatlari o`zgarmaydi va rivojlanmaydi. Autizm -ruhiyatning buzilishi bilan bog`liq holat. Autizm miyaning rivijlanishi yoki ishlashidagi buzilish natijasida yuzaga keladi. Odatda autizmning dastlabki belgilari 1 yoshdan 3 yoshgacha bo`lgan bolalarda namoyon bo`ladi. Ko`pgina hollarda, bu kasallik tug`ma hisoblanadi. Tibbiy tasnif autizmni asab tizmining kasalliklari deb tasniflaydi, ammo autizm kasallik emas, balki rivojlanishdagi alohida holat degan fikr mavjud. Tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki kasallik qizlarga nisbatan o`g`il bolalarda 4 baravar ko`p. Jahon statistika ma`lumotlariga qaraganda autizm spektrli bolalarni sabablari noma`lum, ammo kasallikning rivojlanishiga turtki bo`lishi mumkin bo`lgan gipotezalar ro`yxati ishlab chiqilgan va klinik jihatdan tasdiqlangan. Kamdan-kam holatlarda autizm balog`at yoshida paydo bo`lishi mumkin.

Tahlillarga ko`ra so`ngi yillarda dunyo bo`yicha taxminan har 50 nafar boladan biriga autizm spektrli tashxisi qo`yilmoqda ekan. Ushbu tashxis qo`yilgan jazzi bemor bolalar tashqi olam, atrofdagilar bilan muloqat qilishni istamaydi. Yolg`izlikni xush ko`radi. Bir xil xatti-harakatlarni takrorlaydi. Autizmga chalingan bolalar o`z olamida yashaydi. Tadqiqotchilarni fikricha autizmning 128 dan ortiq turi aniqlangan. Asosan otanalar quyidagi belgilarga e`tibor berishlari kerak:

-bolani ota-onasi bilan bo`lishni yoqtirmasligi.

-uch yashar bolaning nutqini rivojlanmaganligi.

-bir o`zi bo`lishni yoqtirishi.

-tevarak atrofdagilardan qochishi.

-nutqi rivojlanmagan ba`zi bolalarda imo-ishora nutqi rivojlanadi biron narsani ko`rsatib olib berishini ko`rsatadi, autizmda esa bu holat kuzatilmaydi.

-Ba`zilar shovqindan quloqlarini bekitib oladi.

-bazilarida ifodasiz so`zlarni takrorlash.

-ba`zilarida yaxshi gapira olmasa ham bir so`zni ko`p marotaba takrorlash.

-ba`zilar juda qo`rqoq bo`ladi.

Autizm bolalarga haddan tashqari ko`p e`tiborni qaratmaslik.

Bolani oilada hamma qatori xis etishini ta`minlash.

Autizmning yengil holatida tarbiyachi bolaning kun tartibini to`g`ri tashkil etishi muhim.

Bolaning faoliyatini uyg`unlashtirish, guruhdagi bolalar bilan yaqinlashtirish, psixoterapevtik tushuntirish ishlarini izchilik bilan olib borish maqsadga muvofiqdir. 2-

Ko`p tarmoqli ixtisoslashtirilga Davlat Maktabgacha ta`lim tashkilotida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko`rsatadi:

Hozirgi kunda 2- KTIDMTT da 20 dan ortiq autizmga chalingan bolalar tarbiyalanadi.Olib borilgan amaliy mashg`ulotlar va kuzatuvlar shuni ko`rsatadiki 20 boladagi xarakter xar-hil qarashlari ham turlicha o`xshash tomonlari insonnig ko`ziga qaramaydi.Gapni eshitib turadi ammo o`z xayollari bilan ovora bo`ladi.Ish faoliytimda autizm bolalarni 20 dan ortiq turini ko`rdim va ularni o`ziga xos xususiyatlarini o`rgandim. Hasan va Husan 4 yoshda 2- KTIDMTT 2024 yil uyun oyida qabul qilindi dastlab ikkalasi ham ota-onasini tanimas edi.Ular derazaga, stolni ustiga yugurib chiqib sakrash, pardalarni yulishga, to`gri kelgan narsalarni otib tashlashar edi, o`yinchoqlarga umuman qaramashmas edi. Ular yugirib o`z xayollari bilan ovora bo`lishar edi.Qoshiqni ushlashni uni og`izga olib borishni , non yeyishni qo`liga narsa ushlashni bilmas edi.Uyda onasi ovqatni yedirib suvni ichirib qo`yar ekan. Biz dastlab ularni bir joyda o`tirishga ko`nikma xosil qildirdik shu bila birga non mevalarni qo`liga ushlab og`ziga olib borish yeyish ko`nikmalarini xosil qildirdik .Bu 2 haftalik kuzatuvdan so`ng 2 oy davom etdi.Hasan ovqatni o`zi mustaqil yeyishni o`rgandi,oshxonadan kelganda oyoq kiyimini juftlab olib qo`yishni o`rgandi. Hasan ota - onasini 6 oydan so`ng taniy boshladi, onasi ketayotganda unga qarab talpina boshladi.Onasi kelgan vaqtda chopib borib quchoqlaydi,dadasini qo`lidan ushlab birga ketishni o`rgandi.Aya, dada, momo,yo`q.Hasan ketaman kabi so`zlarni o`rgandi. Mashg`ulotlarda yaxshi qatnashaypti, ammo ko`zga qaramaydi. Husan faqat mashg`ulotlarda orqaga qarab o`tira oladi,qo`liga lego (plasmas oyinchoq otcha tarelkacha va hakoza) bo`lagidan olib o`zini boshiga urib o`tirishni xoxlaydi, hech kimga qaramaydi.topshiriqlarni bajarmaydi psixolog mashg`ulotlarida va boshqa mashg`ulotlarda befarq hech narsaga qaramaydi.Aka ukalar hozir 5 yoshda.3- bola Sunnat 4 yoshda muassasaga autizm RAS tashxisi bilan kelgan, hech narsaga qiziqmas edi to`gri kelgan narsalarni maqsadsiz titkilar edi.mashg`ulotlarga e`tiborsiz,chaqirsa qaramaydi goh kuladi, gohida yig`laydi.Juda qo`rqqoq edi. 2 haftalik kuzatuvda Sunnatni har tomonlama o`rgandik.Uni mashg`ulotlarda o`tirishga undadik.Sunnat 2 oydan so`ng mashg`ulotlarga jalb qildik u juda qo`rqqoq, yig`loqi, ko`zga qaramasdan yig`lar edi. O`rnidan turib yurib bir joyga shkaf yoniga yoki karovat yoniga borib o`tirar edi.Sunnatda 3 oydan so`ng asta -sekin o`zgarish bo`la boshladi.

Nevropotolog muolajasi,logoped,tarbiyachi, psixolog, uyda onasi birgalikdagi mashg`ulotlar olib borib Sunnatda yaxshi o`zgarish bo`la boshladi.Biz mashg`ulotlarni ketma-ket yo`nalishda bolaning imkoniyatlaridan kelib chiqan holda,ko`nikma malakalarini



shakllantirib uni o`z xoxishi bilan logoped stoli yoniga kelishini, psixolog mashg`ulotlarga istab qatnashishini xoxladik va bunga erishdik. Biz bolalarni yaxshi xulqi va xatti-harakatlarini doim olqishlab rag`batlantirib bordik. Bizning guruhda faqat autizm bolalar emas, balki boshqa imkoniyati cheklangan bolalar ham bor. Sunnat mashg`ulotlarda o`tiradi, mevalarni, sabzavotlarni, uy va yovvoyi hayvonlarni, mebellar, o`quv qurollari, qushlar, ranglarni, guruhdagi bolalarni ismlarini, 1 dan 50 gacha sanashni o`rgandi. Tadbirlarda qatnashish, topshiriqlarni bajarish, sodda rasmlar chiza oladi. Aralash qo`yilgan predmetarni ichidan xoxlagan predmetni nomi aytilganda nomlab farqlab ajrata oladi. Alifbe kitobidagi harflar ko`rsatilgan harflarni to`g`ri talaffuz qiladi, harflarni o`qiy boshladi. Hozirda u bilan yozuv malakalarini shakllantirish ustida ish olib borilmoqda. Muhammad Azizni onasi bilan suhbatlashganimda unga autizm tashxisi qo`yilgani va muolaja va mashg`ulotlardan so`ng unda bo`lga o`zgarishlar haqida gapirib berdi. Mening o`g`lim hozir uch yarim yoshda (3,5) Men o`g`limni kuzatgan paytimda u 1 yoshda edi. U ismiga befarq, chaqirsam qaramas edi. Keyinchalik shovqin, begonalar kishilarni ko`rsa yoqtirmay yig`lar edi. Oilada mendan boshqa hech kimni yoniga bormasdi. Aylana, g`ildirak (o`yinchoq mashinalarni g`ildiragi) o`ynar edi. Nima kerakligini ko`rsatmay yig`lay boshlardi. Maqsadsiz go`ldirar edi. Mashg`ulotlar va davolashlardan so`ng ulg`ay boshlagan sari ranglar, sanoqlar harflar, multfilmlarni ko`ra boshladi lekin odamni ko`ziga qaramas edi. Sekin -asta "Siniy traktor" multfilmni ko`ra boshladi va unga bog`lanib qoldi, sekin-asta ranglarni farqlay boshladi, diqqatini jamlay boshladi. Hozirda mashg`ulotlarda o`tiradi rasmlarni nomlaydi. Aytilgan predmetlarni rasmdan topib beradi. Ammo garshoka o`tirishga, ovqat yeishga, soch oldrishga, tirnoqlarini olishga juda kuchli qarshilik ko`rsatadi. Tushuntira olmagan narsalarini, o`zi xoxlamagan narsalarni qilmaydi, xoxlamagan ishini majburdan qildira olmayman. Tengdoshlari-dan 2 yil orqada qolgan deb xisoblayman. Sog`lom bolalar 4-5 ta so`zni bog`lab gapiradi. Bunda esa sodda gaplar lug`atida juda kam. Endi maqsadli gapirishga harakat qilyapti. Ovqat rasionida faqat pecheniy, kefir, xotdog. Mevalardan olma banan. Boshqa mevalarni nomini biladi, lekin iste`mol qilmaydi. Ovqatlarni yemaydi. Harfli o`yinchoqlarni sanoqlisini bir o`zi o`ynaydi olib uxlaydi hech kimga bermaydi. Bolalarga qo`shilmaydi. Hozirgi kunda Muxammad Aziz bilan mashg`ulotlar olib borish davo etayapti va u maqsadli gapirishga o`rganyapti. Mevalar, sabzavotlar, uy va yovvoyi hayvonlar nomini o`rganib bir -birida farqlashga o`rganayapti. Mirkomilov Abdullox Otabekovich 2021 yil 27-aprelda tug`ilgan. 2024 yil 6-dekabrda 2024-008258 sonli TPPKning autizm va F-83 PNRK tashxisi bilan 2-KTIDMTT ga qabul qilingan. Bolada haqiqatdan ham autizm va RAS belgilari yaqqol ko`zga tashlanib

turadi. Kuzatishimizcha bola o'z ismini aytib murojaat qilganda uni ismi aytilayotganini xis qilmaydi. Ismini aytib chaqirganda qaramaydi. Qarshisidagi insonni ko'zlariga umuman qaramaydi. Bolalar bilan birgalikda o'ynamaydi, o'ynashni istamaydi. Diqqati tarqoq. Mashg'ulotlarda o'tirmaydi. Maqsadsiz yuguradi. Yugurishni yaxshi ko'radi. Ovqatni tanlab yeydi. Har bir taomni avval xidlab ko'radi. Sut va sutli taomlarni yaxshi ko'rib yeydi.

Shovqini yoqtirmaydi. Baland ovozlarga quloqlarini qo'li bilan bekitib oladi. Meva va sabzavotlarni mulyajlarini titkilashni yoqtiradi. Ularni nomlarini ruschalab xato talaffuz qilib turadi, Lekin mashg'ulot stoli yoniga kelmaydi. Chetda turib boshqa joyga qarab takrorlaydi. Tengdoshlariga matematika mashg'ulotlari o'tilayotganda inglizchalab nimalarnidir chetda turib gapirib turadi. Rang va shakllarni ajrata olmaydi. Rasionini banan, olma, qora non, sutli grechka, bedana tuxumi, kartoshka frisi tashkil etadi.

Tozalikka rioya qiladi tez-tez qo'lini nam salfetka bilan artib turadi. Odobga chiqanida ham tozaligiga qarashlarini kutib turadi. 2 haftalik kuzatuvdan so'ng korreksion ta'limiy ish olib borilmoqda. Bola hozirda mashg'ulotlarda o'tirishga jalb etildi. Maqsadsiz yugurishlar kamaydi. Boladagi o'zgarishlar matematika mashg'ulotlarini olib borishda sonlarni takrorlay boshladi. Zinadan oshxonagacha zinani sanab tushadi. Baxtiyorov Kamron 5 yoshda. KTIDMTTga 4 yoshda autizm -RAS tashxisi bilan kelgan. Kamron tinmasdan maqsadsiz yuguradi edi va doimo stolni tagiga kirib yotardi. Bolalar bilan o'ynamasdi. O'yinchoqlarga qiziqmasdi. Doimo pampers taqadi. Ovqatlanish raseonida faqat pechenie, keks, vafli, suv. Har-har zamon 1 dona kotlet yeyishi mumkin, nonni kam iste'mol qiladi. Mevalardan olma lekin olma uni organizmiga yoqmaydi. 1 yil ichida Kamron bilan kompleks ish olib borildi. Komron hozir mashg'ulotlarda o'tiradi. Odamni ko'ziga qaramaydi. Predmetlarni nomini o'rgandi. Masalan: Mevalar, sabzavotlar, uy va yovvoyi hayvonlar, o'quv qurollarini nomini aytganda takrorlab olib beradi. Ammo olma meva, ruchka o'quv quroli ekanligini farqlamaydi. Ko'p predmetlar nomini bilan bir-birida farqlamaydi.

Autizmga chalingan bolalar bilan ishlashda bolani avval mashg'ulotlarda o'zi xoxlab o'tirishiga erishilsa ular bilan ishlash osonroq bo'ladi. Ammo ular bilan ishlash ancha mashaqatlidir. Autizm bolalar bilan ishlashda kompleks ishlash hamkorlikda ishlashni talab etadi. Xar bir mutaxasis o'z yo'nalishida hamkorlari bilan bog'liq xolda ish olib borishi shart. Bu xastalik 40 yil oldin kirib kelgan, munozarali, lekin ba'zilarining baxslashib kelishicha, shaxsga (bolaga) "autistiklik" deb tashxis qo'yish mumkin. Bu xastalikning bu belgisi -bolaning muloqot qilishdagi qiyinchiligi: boshqa odamlar bilan aloqa qilishdan o'zini tortib, o'zining olamida yashaytganidek tuyuladi. Ammo u yashash maqsadsiz

ekanligi ko`rinib turibdi. Bola hech narsani xis qilmaydi. Xatto o`zini kimligini aniq bilmaydi. Ismini aytib chaqirganda qaramaydi nima yaxshiyu-nima yomon ekanligini bilmaydi.1943 yilda ingliz psixiatri Leo Kenner davolash amaliyotida 11 bolaning xulq-atvori, yurish-turishida o`xshash belgilarni kuzatib,"ilk yoshdagi bolalar autizmi" atamasini kiritdi.U kuzatgan barcha bolalardagi belgilar hozirgi kunda ham autizmning asosiy belgilari sifatida o`rganilmoqda.1981 yildan boshlab bolalar autizmi mustaqil nuqson sifatida qabul qilindi.Hozirgi kunda bolalar autizmi bosh miyaning rivojlanishidagi kamchiliklaridan kelib chiqadigan mustaqil nuqson sifatida o`rganilmoqda.

Amerikada 1996-2007 yillarda bolalar autizmi mustaqil nuqson sifatida ancha ko`p miqdorda hisobga olindi.Bolalarga-"sababi og`ir bo`lgan rivojlanishning og`ir buzilishi" diagnozi qo`yilgan.Diagnozning o`rganishda ko`proq bolaning xulq-atvoriga e`tibor beriladi.Autizmning birinchi belgilari 1 yoshda paydo bo`ladi.Odatda sog`lom bola ilk yoshda tevarak-atrofga qiziqish bilan qaraydi.4 oylik bolani qo`liga shiqildoq berilsa u xursand bo`ladi, onasini ko`rsa talpinadi. Autizm bola esa e`tibor bermaydi,hech narsaga qiziqmaydi,yangi buymlarni o`rganishni istamaydi,kattalarga yani yaqinlariga talpinmaydi.

Autizm bolalarda o`z-o`ziga xizmat qilishda bir qancha muammolarga duch keladi.o`z-o`ziga xizmat qilish juda sekin shakllanadi va sifatli rivojlanmaydi.Autizmga ega bolaning ehtiyojlarining tanqisligi ko`ruv aloqasining o`rnatishga bo`lgan intilishlarning yo`qligi, muloqatga kirishishdagi asossiz qo`rquvlar uning "Ijtimoiy yakkaligining" yorqin ko`rinishidir.Autizm bolalarda nutqiy nuqsonlar kommunikativ jarayonlarning komponentlarini yetarlicha bo`lmasligida nomayon bo`ladi.Turli xil nutq nuqsonlari kuzatiladi.Autizmli bola bilan ishlashda uni har tomonlama o`rganib, ota-ona mutaxassislar birgalikda ish olib borsa bolada o`zgarish bo`ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. "Defektologiya asoslari" V.S.Raxmanova.Toshkent 2017 yil.
2. "Rivojlanishida nuqsoni bo`lgan bolalar" D.A. Nurkeldiyeva, M.U. Xamidova Toshkent 2016 yil.
3. "Logopediya" M.Ayupova. Toshkent 2007 yil.